



YOUTH AND THE LAW: MY LEGAL RESPONSIBILITY

Shodiyakhon Odilova

Pakhtaabad district, Andijan region

Specialized state comprehensive school No. 37

10th grade student

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17452851>

ARTICLE INFO

Received: 18th October 2025

Accepted: 24th October 2025

Online: 25th October 2025

KEYWORDS

Youth, law, responsibility, Constitution, legal culture, accountability, civic duty, state policy, youth policy, legal education.

ABSTRACT

This article explores the legal culture of young people in the Republic of Uzbekistan and the mechanisms for enhancing their sense of responsibility before the law. It examines issues related to preventing youth delinquency, fostering respect for the law, and protecting the legal rights of young people within the framework of state youth policy. The article analyzes normative and legal documents such as the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the Criminal Code, and the Law "On State Youth Policy." The author emphasizes the importance of developing legal awareness among young people, cultivating a sense of civic duty and responsibility, and fostering a deep understanding of their rights and obligations. The present article contributes to the education of the younger generation in the spirit of legality, civic responsibility, and respect for the law.

YOSHLAR VA QONUN: MENING HUQUQIY MAS'ULIYATIM

Shodiyaxon Odilova

Andijon viloyati Paxtaobod tumani

37-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi 10-sinf o'quvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17452851>

ARTICLE INFO

Received: 18th October 2025

Accepted: 24th October 2025

Online: 25th October 2025

KEYWORDS

Yoshlar, huquq, qonun, mas'uliyat, Konstitutsiya, huquqiy madaniyat, javobgarlik, fuqarolik burchi, davlat siyosati, yoshlar siyosati, huquqiy tarbiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularning qonun oldidagi mas'uliyatini shakllantirish masalalari yoritilgan. Muallif yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash, shuningdek, davlat siyosatida yoshlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar haqida fikr yuritadi. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi va "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi Qonun



kabi me'yoriy hujjatlar tahlil qilingan. Shuningdek, muallif o'z shaxsiy mas'uliyati, fuqarolik burchi va huquqiy ongini yoritish orqali yoshlarning jamiyatdagi o'rni va vazifasini chuqur anglash zarurligini ta'kidlaydi. Mazkur maqola yosh avlodni huquqiy bilim va mas'uliyat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lini tanladi. Bu yo'lning eng muhim tayanchlaridan biri — yosh avlodning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishdir. Zero, jamiyatning ertangi kuni, mamlakatning ravnaqi va barqarorligi, eng avvalo, bugungi yoshlarning bilimli, qonunlarga hurmatli, mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga bog'liq. Shu bois "Yoshlar va qonun: mening huquqiy mas'uliyatim" mavzusi nafaqat bugungi kun uchun, balki butun kelajagimiz uchun ham dolzarbdir.

Huquqiy madaniyat xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslangan holda insof va iymon, adolat va qonuniylik, insonga yuksak hurmat va e'tibor, sabr-toqat kabi ma'rifat va haqiqat tuyg'ularini ongimizga singdirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham kishilarning fikrini, dunyoqarashini mustaqilligimiz yo'lida fidokorona mehnat qilishga yo'naltirilgan huquqiy madaniyatni yuksaltirish hayotiy zaruriyatdir. Aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish, huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar tartibotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinlariga chuqur hurmat va ehtiromga asoslangan munosabatni, odamlarda qonunga itoatkorlik tuyg'usini, qonunlarni bilish va unga qat'iy amal qilish saodatmandligini qaror toptirish bugungi kunning zaruriy talabi bo'lib kelmoqda.[1]

Huquq — bu jamiyatda tartibni ta'minlovchi, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni me'yorlashga xizmat qiluvchi qadriyatdir. Har bir yosh huquqni bilishi, unga amal qilishi, o'zining huquqiy mas'uliyatini his qilishi zarur. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi va "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun yoshlarning huquqiy maqomi, huquqlari va mas'uliyatini aniq belgilab bergan.

Huquqiy mas'uliyat tushunchasi shaxsning o'z harakatlari uchun javob berish majburiyatini bildiradi. Bu majburiyat nafaqat jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikni, balki axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatni ham o'z ichiga oladi. Masalan, o'qituvchini hurmat qilish, darslarda faol bo'lish, sinfdoshlar bilan xushmuomala bo'lish — bu ham huquqiy madaniyatning tarkibiy qismlaridir. Agar inson har bir ishini qonun doirasida bajarsa, u jamiyatda hurmat qozonadi va huquqiy davlatning mustahkam poydevorini yaratishda o'z hissasini qo'shadi.

Konstitutsiyaning 21-moddasida "Har bir inson qonun oldida tengdir" deb belgilangan. [1].

Bu norma yosh avlodga adolat, tenglik va mas'uliyat tamoyillarini singdiradi. Yoshlar o'z huquqlarini bilish bilan birga, boshqalarning huquqlariga ham hurmat bilan qarashni o'rganishlari lozim.



Jinoyat kodeksining 17-moddasiga binoan, shaxs jinoyat sodir etgan taqdirda 16 yoshdan boshlab jinoiy javobgarlikka tortiladi, ba'zi hollarda esa 14 yoshdan javobgarlik belgilanadi [2]. Bu yoshlarni qonunga xilof xatti-harakatlardan saqlash, ularni ogohlikka chaqirish uchun muhim huquqiy me'yordir. Masalan, o'g'rilik, talonchilik, jamoat joyida tartibsizlik kabi xatti-harakatlar uchun jazolar qonunda belgilangan. Shuning uchun har bir o'smir o'z xatti-harakatini o'ylab, uning oqibatlarini anglab ish tutishi zarur.

Yoshlarning huquqiy ongi, avvalo, oilada shakllanadi. Ota-onalar farzandga mehr bilan birga, tartib-intizomni, qonunlarga hurmatni ham singdirishlari kerak. Maktab esa huquqiy tarbiyaning eng muhim maskanidir. Huquq fani, tarbiyaviy soatlar, "Huquq haftaligi", "Qonun va yoshlar" kabi tadbirlar o'quvchilarning huquqiy dunyoqarashini kengaytiradi. Bunday tadbirlar yoshlarni mas'uliyatli, adolatparvar va vatanparvar shaxslar etib tarbiyalaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida davlat yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun chora-tadbirlar ko'rishini belgilangan [3]. Bu qonun yoshlar uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi: ular o'z fikrini erkin bildirish, jamiyat hayotida faol ishtirok etish, ta'lim olish va mehnat qilish huquqlariga ega. Shu bilan birga, qonun yoshlarni intizomli, mas'uliyatli va qonunlarga sodiq bo'lishga chaqiradi.

Huquqiy mas'uliyat faqatgina jazoga tortilish bilan cheklanmaydi. U insonning vijdoni va axloqiy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq. Masalan, maktabda o'quvchi sinfdoshini haqorat qilmasa, mulkni asrab-avaylasa, bu ham huquqiy mas'uliyatning ifodasidir. Insonning ichki tartibi va vijdoni qonundan ham kuchli nazoratchi bo'la oladi.

Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida yoshlar masalasiga alohida e'tibor qaratadi. U 2021-yil 30-iyun kuni "Yoshlar kuni" munosabati bilan aytgan nutqida shunday degan edi: "Biz yoshlarimizni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalamas ekanmiz, ularning kelajagini, xalqimizning ertangi kunini ishonch bilan tasavvur eta olmaymiz." [4] Bu so'zlar yoshlar uchun hayotiy dasturilamal bo'lishi kerak.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar davrida yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishning yangi yo'llari paydo bo'lmoqda. Internet orqali huquqiy ma'lumotlarni olish, elektron hukumat tizimi orqali murojaatlar yuborish, onlayn ta'lim platformalarida o'qish imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birga, internetdan noto'g'ri foydalanish, yolg'on axborot tarqatish, kiberjinoyatlarga aralashish kabi xatarlar ham mavjud. "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun va "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun yoshlarni bu sohada himoya qilishni nazarda tutadi [5].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak" nomli ma'ruzasida siyosiy partiyalar, ularning parlamentdagi fraksiyalari va deputatlarining faoliyatini tanqidiy tahlil qilib, quyidagi fikrlarni bayon etdi: "Deputatlarining ish uslubini takomillashtirish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida siyosiy partiyalar orqali: "Markaz - viloyat - tuman" tartibida ishlaydigan yangi tizimni joriy etish ayni muddao bo'lar edi" [6], - degan fikrni bildirganlar, chunki barcha qonunlarning yaratilishi, ishlab chiqilishi deputatlar tomonidan amalga oshiriladi.



Yoshlar o'rtasida ba'zan huquqbuzarlik holatlari uchrab turadi: maktabda intizomni buzish, dars qoldirish, janjallashish, boshqalarning mulkiga zarar yetkazish va hokazo. Bunday holatlar jamiyatda jiddiy oqibatlariga olib kelmasligi uchun har bir o'quvchi o'z burchini chuqur anglab, huquqiy madaniyatni hayot tarziga aylantirishi lozim. Maktablarda profilaktika inspektorlari, psixologlar va sinf rahbarlari bilan hamkorlikda huquqiy targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Bu esa yoshlarni og'riqsiz yo'l bilan to'g'ri hayot yo'liga yo'naltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2016–2021-yillarda yoshlar siyosatiga doir 5 ta qonun va 55 ta qonunosti hujjati qabul qilindi. 2016-yilda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun sharoitlar yaratishga xizmat qilishi alohida ta'kidlanib, amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar qonun bilan mustahkamlandi.

Mazkur qonunda belgilangan vazifalar ijrosi doirasida qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqi hamda Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. Bundan tashqari, Oliy Majlis Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya, Oliy Majlis palatalari huzurida "Yoshlar parlamenti" tashkil qilindi. Shu bilan birga Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tashkil etildi. Hududlarda "Loyihalar fabrikasi" ish boshladi.

Mazkur ishlar natijasida O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgandan buyon 841 147 nafar yoshning bandligi ta'minlandi. 2021-yilning birinchi yarmida Yoshlar ishlari agentligi tomonidan 78 140 nafar yosh ishga joylashtirilgan bo'lib, 5 684 nafar yoshga subsidiyalar ajratildi, ijtimoiy himoyaga muhtoj 127 nafar talabaning 350 million so'mlik to'lov shartnoma mablag'lari to'lab berildi.

Yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularning tashabbusini moliyalashtirish maqsadida 2018-yildan boshlab hududlarda 25 ta "Yosh tadbirkorlar" kovorking markazi va 157 ta "Yoshlar mehnat guzari" kompleksi faoliyat boshladi. "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi doirasida respublikaning tuman va shaharlarida amalga oshiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusni targ'ib qilish va ro'yobga chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur g'oyani amalga oshirish maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida "5 tashabbus loyiha ofisi" faoliyati yo'lga qo'yildi. Tegishli loyihalar, jumladan, "Sport karvoni", "Bir million dasturchi", "Eng yaxshi kitobxon oila" kabi loyihalar amalga oshirilmoqda.

Turli sohalarda samarali faoliyat yuritayotgan, yuqori natijalarga erishib, tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan yigit-qizlarni rag'batlantirish maqsadida "Mard



o'g'lon" davlat mukofoti va "Kelajak bunyodkori" medali ta'sis etildi. O'tgan vaqt davomida 113 nafar yosh "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan, 75 nafari esa "Kelajak bunyodkori" medali bilan mukofotlandi.

Ta'lim-tarbiya sohasida ham so'nggi yillarda ulkan o'zgarishlar ro'y berdi. Tizim tubdan isloh qilindi. Mazkur sohada yoshlar manfaatlarini ko'zlab ko'plab o'zgarishlar amalga oshirildi.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasida O'zbekiston Yoshlar ittifoqining o'rni ham beqiyosdir. Ushbu tashkilot yoshlar bilan huquqiy mavzularda davra suhbatlari, seminarlar, musobaqalar o'tkazib, ularning huquqiy dunyoqarashini mustahkamlamoqda. Ayniqsa, "Huquqiy bilimdonlar bellashuvi" kabi loyihalar yoshlarning qonunlarni amalda qo'llay bilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Huquqiy madaniyat va mas'uliyatning muhim jihatlaridan biri — bu Vatan va jamiyat oldidagi burchni ado etishdir. Yoshlar qonunlarga hurmat bilan qarasa, ular ertangi kunda qonun ustuvorligini ta'minlaydigan yetuk fuqarolarga aylanadi. Bu nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki butun mamlakat taraqqiyotining garovidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, "Yoshlar va qonun: mening huquqiy mas'uliyatim" mavzusi har bir o'quvchining hayotida amaliy ahamiyatga ega. Huquqni bilish — bu nafaqat o'zini himoya qilish, balki jamiyatga foydali bo'lish, adolatni qaror toptirish demakdir. Men, Shodiyaxon Odilova, 10-sinf o'quvchisi sifatida shuni anglaymanki, qonunlarga hurmat, intizom va halollik insonning eng katta fazilatidir. Har birimiz qonunlarga amal qilsak, jamiyatimizda adolat, tinchlik va farovonlik mustahkam qaror topadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yilgi tahriri.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 1994-yil 22-sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, 2016-yil 14-sentabr.
4. Shavkat Mirziyoyev. "Yoshlar – kelajagimiz bunyodkorlari", 2021-yil 30-iyun.
5. O'zbekiston Respublikasi "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 2-iyul.
6. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. www.Zarnews.uz